

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**MAGISTRATURA BO`LIMI
LINGVISTIKA MUTAXASSISLIGI**

KURS ISHI

**MAVZU: ARAB TILIDA GRAMMATIK KATEGORIYA
VA UNING TURLARI**

Annotatsiya- Ushbu kurs ishida arab va o`zbek tillarida grammatik kategoriyalar munosabati qiyosiy-chog`ishtirma usulda tahlil qilinib, tegishli misollar keltirilgan. Chunonchi, o`zbek tilidagi son, egalik, kelishik, sub`yektiv munosabat kategoriyasi, qiyoslash kategoriyasi, nisbat kategoriyasi, o`zgalovchi va kesimlik kategoriyalari arab tilidagi muqobillari bilan qiyosiy tarzda tahlil etilgan.

**BAJARDI: U. Shonazarov
TEKSHIRDI: Z. Begmatova**

TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA

1) Reja.....	2
2) Kirish.....	3
3) Asosiy qism.....	4
I BOB.....	4
Grammatik kategoriya tushunchasi.	
II BOB.....	11
Arab va o'zbek tillarida kelishiklarning ifodalanishi.	
III BOB.....	16
Jins kategoriyasi.	
4) Xulosa.....	19
5) Foydalanilgan adabiyotlar.....	21

Reja:

1) Kirish.

2) Asosiy qism:

a) Grammatik kategoriya tushunchasi.

b) Arab tilida grammatik kategoriya va uning turlari.

c) Son va kelishik kategoriyasi.

d) Arab tilida jins kategoriyasi.

3) Xulosa.

4) Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

KIRISH

Grammatik kategoriya va grammatik shakl masalasi grammatika fanida ko'p tilshunoslarni o'ylovga qo'ygan masalalardandir. Grammatik kategoriya mohiyati nimadan iborat? Bu savolga tilshunoslar turlicha javob beradilar. Buning mohiyatini bilish uchun dastlab kategoriya atamasining o'zi nimaligi haqida fikr yuritaylik. Bu atama falsafadan tilshunoslikka kirib kelgan bo'lib, falsafada bu tushuncha quyidagicha izohlanadi: "...obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatlarni aks ettiruvchi umumiy tushuncha". Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, ya'ni kategoriya uchun juftlik va yakkalik mavjud bolishi shart va zarur. Falsafada juftlikni sabab -natija, mohiyat -hodisa, butun- qism; yakkalikni borliq, miqdor, makon tashkil etsa, tilshunoslikda kategoriya atamasi ostida qat'iy zidlangan ikkilik (son kategoriyasi) yoki ko'plik (kelishik kategoriyasi) tushuniladi.

Grammatik kategoriya bo'lishi uchun aloqa va aloqaga tushuvchi birliklar zarur. Muayyan ma'no umumiyliги asosida birlashgan va o'zaro zidlanuvchi shakllar sistemasi grammatik kategoriya hisoblanadi. Grammatik kategoriya deganda, asosan, morfologik kategoriyalar (MK) anglashiladi. Grammatik kategoriya grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki ma'lum turdagi formalarning barqaror munosabatlari tizmasidan iborat bo'lgan yangi bir butunlikdir. Shuning uchun grammatik kategoriya o'zi uchun xos bo'lgan umumiy ma'noga ega, bu ma'no shu kategoriya shakllarida ma'lum ko'rinishlarda, turlarda parchalanib, aniqlanib voqelanadi. Shuning uchun kategoriya umumiy grammatik ma'nosi bilan shu kategoriya birliklari shakllari xos Grammatik ma'nolari o'zaro tur-jins munosabatlarida turadi. Masalan, o'zbek tilida ravishdoshlarning umumiy grammatik ma'nosi "fe'lni fe'l bilan aloqaga kiritish" sifatida tavsiflanadi.

I BOB. GRAMMATIK KATEGORIYA TUSHUNCHASI.

Grammatik kategoriya deganda, asosan, morfologik kategoriyalar (MK) anglashiladi. Grammatik kategoriya grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig`indisi emas, balki ma`lum turdagi formalarning barqaror munosabatlari tizmasidan iborat bo`lgan yangi bir butunlikdir. Shuning uchun grammatik kategoriya o`zi uchun xos bo`lgan umumiy ma`noga ega, bu ma`no shu kategoriya shakllarida ma`lum ko`rinishlarda, turlarda parchalanib, aniqlanib voqelanadi. Shuning uchun kategoriya umumiy grammatik ma`nosi bilan shu kategoriya birliklari shakllari xos Grammatik ma`nolari o`zaro tur-jins munosabatlarida turadi. Masalan, o`zbek tilida ravishdoshlarning umumiy grammatik ma`nosi "fe`lni fe`l bilan aloqaga kiritish" sifatida tavsiflanadi.

Lekin ravishdoshlarning xususiy ko`rinishlari quyidagi paradigmani hosil qiladi:

- I. 1.- *gach* — boshqa bir harakatning boshlanish chegarasini ko`rsatish;
2. *-guncha* — boshqa bir harakatning tugallanish chegarasini ifodalash;
3. *-ganda* — boshqa bir harakat sodir bo`lish fonini ifodalash;
- II. 4. *-b/-ib* — davomli va davomsiz harakatni fe`l bilan bog`lash;
5. *-a/-y* — davomli harakatni fe`l bilan bog`lash;
- III. 6.- *gani/-gali* — maqsad ma`noli harakatni boshqa harakat bilan bog`lash.

Yuqorida ko`rsatilgan barcha ravishdoshlarda ravishdoshning umumiy ma`nosi mavjud: fe`lni fe`lga bog`laydi. Lekin bu uch qatorning xususiy ma`nolari ham bor: birinchi qatorda payt, zamon, ikkinchi qatorda davomli- davomsizlik, uchinchi qatorda sabab-maqsad umumiy grammatik ma`nolari mujassamlangan. Keyingi tadqiqot ishlarida (Qarang: Mengliyev B. Morfologik vositalarning ma`noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari. ND. Buxoro, 1994) yuqorida ko`rsatib o`tilgan (*-gach,- guncha, -ganda, -b/ -ib, -a/ -y, -gan / -gali*) shakllar ravishdoshlarning turli zamon yoki tarz formalari emas, balki har xil zamon va tarz kategoriyalarining ravishdoshlarda ko`rinishi sifatida talqin qilingan. Boshqacha qilib aytganda, zamon ma`nolari ravishdoshlarga va ravishdoshlik vazifasi zamon

ichiga singib ketgan. Bunday hodisalarni o`rganish bugungi tilshunosligimiz oldiga ko`ndalang qilib qo`yilgan.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, shakl va kategoriya tushunchalari pog`onali, butun- bo`laklik, katta-kichiklik munosabatlari bilan bog`langanligi sababli biror kategoriyaga mansub bo`lmaydigan morfologik forma bo`lishi mumkin emas. Moddiy ko`rsatkichi bitta bo`lgan kategoriyalarda muayyan morfologik formani yasovchi asosning o`zi nol ko`rsatkichli- \emptyset bo`lib, ikkinchi morfologik shaklni tashkil qiladi. Chunonchi,

kitob -birlik son

kitoblar- ko`plik son

qizil -oddiy daraja

qizilroq -qiyosiy daraja.

Odatda nokategorial deb ataluvchi *-niki*, *-dagi*, *-dek*, *-gacha* morfemalari mohiyatan so`z yasovchilardir. Sh. Shahobiddinova morfologik kategoriyalarni o`rganar ekan, o`zbek tilida ularning quyidagi turlarini beradi:

1. Son kategoriyasi — $[\emptyset]$: *[-lar]*
2. Egalik kategoriyasi — $[\emptyset]$: *[-i/m]:[-i/ng]...*
3. Kelishik kategoriyasi — $[\emptyset]$:*[-ning]:[-ni]:...*
4. Subyektiv munosabat kategoriyasi — $[\emptyset]$: *[-jon]:[-xon]...*
5. Qiyoslash kategoriyasi — $[\emptyset]$: *[-roq]...*
6. Nisbat kategoriyasi — $[\emptyset]$:*[-t/-dir]: [-il]...*
7. O`zgalovchi kategoriyasi — $[\emptyset]$:*[-ish]:[-i/b]:[-gan]...*
8. Kesimlik kategoriyasi — $[\emptyset]$ aniqlik, buyruq, shart mayli...

Ma'lumki, o'zbek tilida otlarning birlik va ko'plik sonlari mavjud.

O'zbek tilida otlarning ko'plik soni –lar qo'shimchasi bilan yasaladi. O'zbek tilida jins kategoriyasi bo'lmaganligi uchun, unda moslashuv arab tilidagidan farq qiladi. Arab tilida birlik, ikkilik va ko'plik son kategoriyalari mavjud.

Bundan tashqari arab tilida otlarning ko'pligi ikki xil usulda to'g'ri; ya'ni muzakkardagi otlarga ون (bosh. k-k) (وَيْنَ) qo'shimchalari, qo'shib, muannas jinsdagi otlardan esa, noaniq holatda (ات) ات qo'shimchalari, aniq holatda ات (ات) qo'shimchasi qo'shib yasaladi.

O'zbek tilida asli sifatdan yoki yaaslgan ot bo'lib, ular faqat birlikda qo'llaniladi. Masalan: go'zallik, tezlik, tinchlik, vatanparvarlik, ozodlik, bolalik va hokazo.

Bundan tashqari o'lchash mumkin bo'lgan narsa, (moddalar) masalan: asal, yog`, tuz, kumush, oltin, temir, choy, un va mavhum otlar: muhabbat, vijdon, chidam va boshqalar.

O'zbek tilida ko'plik –lar qo'shimchasi hurmat-ehtiromni ifoda etish uchun ham qo'llaniladi.

Arab tilidagi ikkilik soni o'zbek tilida yo'q. Uni o'zbek tilida 2 so'zi bilan ifodalanadi.

Arab tilida ikkilik otlarga (يْن) ان qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi.

Oxiri اء bilan tugagan otlardan ikkilik yasalganda ء o'rniga و qo'yiladi.

Masalan:

صحروان – صحراء حمروان – حمراء

ي bilan tugagan ismlarda esa cho'ziq ي qisqa ي ga aylanadi. Masalan: معنيان – معني

Ikkilik soni arab tilida fe'llarda ham mavjud. O'tgan zamon fe'lining 2-3 shaxslarida ikkilik shaxs qo'shimchalari quyidagicha bo'ladi. 2-shaxs va 3-shaxsda fe'l boshiga pristavkalar 2-shaxsda ت, 3- shaxs muzakkar ي, muannas ت fe'l oxiriga esa ان qo'shimchasi.

Ikkilik kategoriyasi ko'rsatish, nisbiy, kishilik, birikma olmoshlarida ham namoyon bo'ladi. Fe'llarda ikkilik faqat arab adabiy tilidagina qo'llanadi. Arab lahjalarida fe'lning ikkilik shakli yo'q.

Otlarning ikkilik shakli arab adabiy tilida to'liq namoyon bo'lsa, lahjalarda faqat tushum kelishigidagina qo'llanilishi mumkin.

SON KATEGORIYASI

Arab tilida uchta grammatik son bor:

1. Birlik. 2. Ikkilik. 3. Ko'plik.

IKKILIK SON

Ikkilik son muzakkar yoki muannas jins, birlik sonda bo'lgan ismning oxiridagi tanvinini olib tashlab, o'rniga تان (a:ni) qo'shimchasini qo'shib yasaladi. Bunda muannas jinsdagi so'zning ة ("ta marbuta")si ت ("ta mamduda")ga almashtiriladi:

ikkita kitob	كِتَابَانِ	←	kitob	كِتَابٌ	
ikkita toliba	طَالِبَاتٍ	←	toliba	طَالِبَةٌ	ikkita
mudarris	مُدْرَسَاتٍ	←	mudarris	مُدْرَسٌ	

Ikkilik sondagi so'z oldiga ال artikli qo'yilganida ham, تان qo'shimchasi o'zgarmaydi:

أَلْكِتَابَانِ	←	كِتَابَانِ	أَلطَالِبَاتِ	←	طَالِبَاتِ
----------------	---	------------	---------------	---	------------

Alif maqsura – ي bilan tugagan ismning ikkiligi hosil qilinganda, u ي ga o'zgaradi:

Ikkita xushxabar	بُشْرَيَانِ	←	xushxabar	بُشْرَي
------------------	-------------	---	-----------	---------

Hamza (ء) yoki alif (ا) bilan tugagan so'zlardan ikkilik son hosil qilinganda, ularning hamza yoki aliflari “ wa:w” (و) ga o'zgarib ketadi:

ikkitita go'zal حَسَنَاءُ ← go'zal حَسَنَوَانِ

Ikkilik sondagi so'zlar bosh va qaratqich-tushum kelishiklarida turlanadi:

Kelishik	Noaniq holatda		Aniq holatda		Kelishik qo'shimchasi
	muzakkar	muannas	muzakkar	muannas	
bosh	طَالِبَانِ	طَالِبَاتِنِ	الطَّالِبَانِ	الطَّالِبَاتِنِ	ـَانِ (- a.ni)
qaratqich- tushum	طَالِبَيْنِ	طَالِبَتَيْنِ	الطَّالِبَيْنِ	الطَّالِبَتَيْنِ	ـَيْنِ (- aymi)

Ikkilik sondagi so'zlar bosh va qaratqich-tushum kelishiklarida turlanadi:

K O ' P L I K S O N

Arab tilida so'zlarning ko'pligini hosil qilish ancha murakkabdir. U bir necha usulda yasaladi.:

1. Siniq ko'plik yasash usuli;
2. To'g'ri ko'plik yasash usuli.

Siniq ko'plik. Ismdan siniq ko'plik yasashda so'zning o'zagi go'yoki "sindiriladi" – ya'ni so'z o'zagini tashkil etuvchi undoshlarning unilari o'zgaradi, ko'plik shakl yasovchi undoshlar kiritiladi. Natijada uning birlik shakli o'zgaradi. Shuning uchun bunday ko'plik yasash usuli "siniq ko'plik" deb ataladi. Siniq ko'plikdagi tanvin z(d)amma bilan tugagan ismlar uch kelishikda, d(z)amma bilan tugagan ismlar esa ikki kelishikda turlanadi:

bog' – bog'lar حَدِيقَةٌ – حَدَائِقُ dars – darslar دَرْسٌ – دُرُوسٌ

kitob – kitoblar كِتَابٌ – كُتُبٌ xabar – xabarlar خَبْرٌ – أَخْبَارٌ

Qaysi so'zning ko'pligi to'g'ri ko'plikda va qaysinisiki “siniq ko'plik”da hosil bo'lishini aniqlaydigan ma'lum bir “temir” qoida yo'q. Buni aniqlash uchun bizga lug'at kitoblari va o'zimiz yod olgan so'z boyligimiz qo'l keladi.

To'g'ri ko'plik. Ismdan to'g'ri ko'plik yasashda uning oxiriga ko'plik qo'shimchasi qo'shiladi. Bunda birlik shakli o'zgarmay turadi. Muzakkar jinsidagi to'g'ri ko'plik shaxsni bildiradigan atoqli otlardan, ularning kasblarini bildiradigan so'zlardan, “ة” (“ta marbuta”) bilan tugamagan, ikkilik va to'g'ri ko'plik qo'shimchalaridan xoli bo'lgan so'zlardan hosil qilinadi.

Muzakkar jinsdagi, odamni va uning kasb-korini bildiradigan so'zlarning ko'oligi uning oxiriga “- وَنٌ” va muannas jinsdagi so'zning ko'pligi uning oxiriga “- تَاتٌ” qo'shimchasini qo'shib hosil qilinadi. Bu yerda ham ة harfi ت ga aylanadi. Muzakkar jins ko'plikdagi so'zlar ال artikli olganda qo'shimchasi o'zgarmaydi:

mudarrislar مُدَّرِّسُونَ ← mudarris مُدَّرِّسٌ + وَنٌ

mudarrisalar مُدَّرِّسَاتٌ ← mudarrisa مُدَّرِّسَةٌ + تَاتٌ

To'g'ri ko'plik, muannas jinsdagi ism ال artikli olganda tanvini tushib qoladi:

olimalar أَلْعِلْمَاتُ ← عَالِمَاتٌ + عَالِمَةٌ ← عَالِمَةٌ

tikuvchilar الْخَيَّاطَاتُ ← خَيَّاطَاتٌ + خَيَّاطَةٌ ← خَيَّاطَةٌ

To'g'ri ko'plikdagi ismlar ikkita kelishikda turlanadi:

Jins	Kelishik	Noaniq holat	Aniq holat	Kelishik qo'shimchasi
Muzakkar	Bosh	مُدَّرِسُونَ	الْمُدَّرِسُونَ	u:na — وَنَ
	Qaratqich Tushum	مُدَّرِسِينَ	الْمُدَّرِسِينَ	i:na — يْنَ
Muannas	Bosh	مُدَّرِسَاتٌ	الْمُدَّرِسَاتُ	a:tu كَاتُ a:tun كَاتُ
	Qaratqich Tushum	مُدَّرِسَاتٍ	الْمُدَّرِسَاتِ	a:ti كَاتِ a:tin كَاتِ

Odamni bildirmaydigan, muzakkar va muannas jinsdagi aksariyat so'zlarning ko'pligi ham muannas jinsdagi to'g'ri ko'plik shaklida hosil qilinadi:

hayvon – hayvonlar حَيَوَانَاتٌ ← حَيَوَانٌ
 imtihon – imtihonlar اِمْتِحَانَاتٌ ← اِمْتِحَانٌ

Ko'pincha odamni anglatgan bir so'zning muzakkar jinsi to'g'ri ko'plikda va muannas jinsi siniq ko'plikda hosil qilinishi mumkin

Arab tilidagi otlarning siniq ko'pligi.

Arab tili fiktiv tillar guruhiga kirishini yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham arab tilida ko'plikning ikki turi: to'g'ri ko'plik va siniq ko'plik mavjud.

To'g'ri ko'plik xuddi o'zbek tilidagidek so'z oxiriga ma'lum qo'shimchalar qo'shib yasaladi. Siniq ko'plikda xuddi o'zbek tilidagidek so'z oxiriga ma'lum qo'shimchalar qo'yib yasaladi. Siniq ko'plikda esa, so'zning ikki strukturasi undagi (undagi unlilar) undagilarning orasiga cho'ziq unli va qisqa unlilar qo'yish orqali yasaladi.

Arab tilida, ba'zi qolipdagi otlarning ko'plik shaklini yasashning aniq morfologik qoidalari mavjud. chunonchi, *فلعة* va *فعلة* qolipidagi otlardan siniq ko'plik *فعل* yasaladi. Masalan *دولة-دول* qolipida. To'rt xarfli otlardan esa *مفاعل* *فاعلل* *افاعل* *فاععل* qoliplarida yasaladi. Masalan *مدارس مدرسة* besh (o'zakli) harfli so'zlardan esa *مفاعيل* *فعاليل* *افاعيل* qoliplarida yasalishi mumkin. Masalan *سلطين سلطان*. Chet tildan kirgan so'zlar bo'lsa, ulardan *فعاليلة* yoki *فعاليل* qolipidagi ko'plik yasaladi. Masalan:

أساتيدُ – أساتذةُ – أستاذ

نلاميذُ – تلاميذةُ – تلميذ

Agar ot 5 dan ortiq harfdan tarkib topgan bo'lsa, oxirgi 2 undosh olib tashlanib 4 harfli otlar yasaladigan qolipga solib ko'plik yasaladi. Masalan:

عنادلُ – عندل – عندليبُ

II BOB. ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA KELISHIKLARNING IFODALANISHI.

O'zbek tilida 6ta kelishik bor. Bular: bosh, tushum, Qaratqich, o'rin payt, jo'nalish va chiqish kelishiklari. Bu kelishiklardan bosh kelishik bosh kelishik morfologik ko'rsatkichga ega emas. Arab tilida kelishiklar 3ta bo'lib (bosh, tushum, qaratqich) ularning hammasi morfologik ko'rsatkichga ega, ya'ni

Bosh kelishik ُ -damma

Tushum kelishigi – fatha

Qaratqich kelishigi ِ kasra.

O'zbek tilida ot bosh kelishikda hech qanday qo'shimcha olmaydiyu

Tushum kelishigi – ni;

Qaratqich kelishigi – ning;

O'rin payt kelishigi – da;

Jo'nalish kelishigi – ga;

Chiqish kelishigi – dan.

Arab tilida bosh kelishik noaniq holatda tanvin damma, aniq holatda esa damma bilan ifodalanadi.

Qaratqich kelishigi noaniq holda tanvin kasra, aniq holatda kasra bilan ifodalanadi.

Tushum kelishigi noaniq holatda tanvin fatha bilan, aniq holda esa fatha bilan ifoda etadi.

Bundan tashqari to'g'ri ko'plik muzakkar va muannasdagi otlarning kelishik ko'rsatkichlari boshqacha ifodalanadi. Biz yuqorida to'g'ri ko'plikdagi qo'shimchalar ularning kelishik ko'rsatkichlarini ham ifodalaydi.

Arab tilida bosh kelishik qaratqich kelishigi orqali, bosh, tushum, qaratqich kelishiklar 1ta tushum kelishigi shaklida ifodalanadigan holatlar ham mavjud.

Masalan: قاضٍ bosh va qaratqich kelishigi, قاضياً tushum kelishigi.

المستشفى – مستشفى – bosh, tushum, qaratqich kelishigi

العصا - عصاً – bosh, tushum, qaratqich kelishigi

Ikki kelishikli otlarda tushum-qaratqich kelishigi bitta ko'rsatkich (qo'shimcha) orqali ifodalanadi (fatha bilan)

مسائل – مسائل – tushum va qaratqich kelishigi.

Ikkilikda bosh kelishik ان tushum –qaratqich kelishigi يُنْ qo'shimchalarini oladi.

Fe'llar ham arab tilida kelishik ko'rsatkichiga ega. O'tgan zamon fe'llari (3o'zakli fe'llar, ikkilangan, to'g'riga o'xshash, hamzali fe'llar) fathaga tugaydi. Hozirgi zamon fe'llar aniq daraja (xabar maylida) damma va istak maylida esa fathaga tugaydi.

Umuman, arab tilida kelishik kategoriyasi murakkab grammatik kategoriyalar qatoriga kiradi. Otlar turli omillar ta'sirida kelishik ko'rsatkichlarini o'zgartirishlari mumkin.

Arab tilida olmoshlarning turlari borki, ularni talqin qilar ekansiz ularning ba'zilar o'zbek tilida egalik qo'shimchalariga to'g'ri keladi. Sho nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak arab tilidagi olmoshlarni to'liq ko'rib chiqish zarurati tug'iladi.

Arab nahvchilari olmoshlarni alohida so'z turkumi sifatida talqin etmaydilar, balki uni ism turkumida talqin etadilar va quyidagicha tasniflaydilar.

1. Shaxsiy olmoshlarni (الإسم المضمّر) deb ataydilar. (ya'ni nazarda tutuluvchi otlar ضمير مُنفصل)
2. Ko'rsatish olmoshlari (قراش إلى مس إلى أ)
3. Nisbiy olmoshlar (الإسم الموصول) birlashtiruvchi olmoshlar.
4. So'roq olmoshlari (الإسم الإستفهام)

Bundan tashqari ko'rsatish va nisbiy olmoshlarni arab nahvchilar noma'lum ma'noli otlar أسماء مُبهمة deb ataydilar. Birikma olmoshlarini esa kishilik olmoshlari toifasida talqin etadilar, ya'ni ضمير متّصل , kishilik olmoshini esa تابة deb ham ataydilar.

Endi olmoshlarning turlari bo'yicha o'zbek va arab tillaridagi olmoshlarni solishtirsak,

O'zbek tilida nisbiy olmoshlar turlari yo'q ekanligi, arab tilida esa o'zbek tilidan farqli o'laroq belgilash olmoshlari, bo'lishsizlik va gumon olmoshlari yo'q ekanligi va bu mavjud bo'lmagan olmosh turlari boshqa so'z yoki olmosh turlari bilan almashtirilishi mumkin ekanligini ko'ramiz.

Olmoshlarning jummalardagi grammatik vazifalari.

Yuqorida biz o'zbek tilidagi olmoshlarning grammatik vazifalariga to'xtalib o'tdik. Endi qisqacha arab tilidagi olmoshlarning grammatik funktsiyalariga to'xtalib o'tamiz.

Arab tilda shaxsiy olmoshlar ega vazifasini bajaradi.

Birikma olmoshlari esa otlar bilan birikib o'zlik ma'nosini kasb etadi. Fe'l bilan kelganda esa to'ldiruvchi bo'lib keladi.

Ko'rsatish olmoshi esa ega, aniqlovchi vazifasini bajaradi. Shuningdek مضاف إليه bo'lishi mumkin. Arab tildagi akkuzativ mustaqil birikma olmoshi o'zbek tilidagi tushum yoki boshqa kelishikda tushlangan shaxsiy olmosh vazifasini bajaradi. Masalan: أعطيتك إياه Men uni senga berdim.

إِيَّاكَ نَعْبُدُ وَ إِيَّاكَ نَسْتَعِينُ

– نُعْطِيهِ إِيَّائِي – Sen uni menga berasan

– يُرِيهِمُ إِيَّاكَ – U senga ularni ko'rsatdi.

So'roq olmoshlari so'roq yuklamalaridan farq qiladi. So'roq yuklamalari من va ما odatda sodda so'roq jumalalarda va ergash gaplar tarkibida qo'llaniladi.

Nisbiy olmoshlar ham ergash gaplar tarkibida ishtrok etadilar.

Bundan tashqari olmoshlar vazifasida, ular maqomida ishlatiluvchi so'zlar ham bor.

Bular so'roq so'z كم – nechta? كذا – mana buncha (skolko-to)

Arab mualliflari bu so'zlarni “Belgili so'zlar”, boshqa so'zlar o'rniga qo'yiluvchi so'zlar كُنَايَات deb ataydilar.

كم so'zidan keyin ot noaniq xolatda va tushum kelishigida qo'yiladi. كم كِتَابًا عِنْدَكَ senda nechta kitob bor.

Agar u ب old ko'makchisi bilan qo'llanilsa, undan keyingi ot qaratqich kelishigida qo'yiladi.

بِكَمْ دِينَارٍ إِشْتَرَيْتَ هَذَا Za skolko dinarov to' kupil eto? Sen buni necha dinorga sotib olding?

So'roq ma'nosidagi so'zdan keyingi كم yuklamasidan keyin so'z qaratqich kelishigida qo'yiladi.

Unda nechta kitob borligini bilmayman. كَذَا لَا أَعْرِفُ كَمْ كِتَابٍ عِنْدَهُ so'zidan keyin ot tushum kelishigida qo'yiladi.

شُنْجَا، شُنْجَا دِينَارًا كَذَا كَذَا

كَذَا so'zi birikmaning ikkinchi bo'lagi ham bo'lishi mumkin.

فِي سَنَةِ كَذَا falonchi yilda

HOLAT KATEGORIYASI

Ism aniq yoki noaniq holatda bo'lishi mumkin. So'zlovchiga oldindan noma'lum bo'lgan so'zlar noaniq holatda, avvaldan ma'lum bo'lgan so'zlar aniq holatda ifodalanadi:

Men bir kitob(ni) o'qidim. (noaniq)

Bu kitob juda foydali ekan. (aniq)

Quyidagi so'zlar aniq holatda deb hisoblanadi:

1. al artikli bilan kelgan so'zlar: أَلْمَدْرَسَةُ ، أَلْوَلَدُ ، أَلْكِتَابُ ، أَلْبِنْتُ

.2 Bu artikl bo'lmagan quyidagi ismlar:

a) atoqli otlar: مِصْرُ ، مَكَّةُ ، طَشَقَنْدُ ، أَحْمَدُ ، فَاتِمَةُ kabi;

b) ko'rsatish olmoshlari: هَذَا ، هَذِهِ ، ذَلِكَ ، تِلْكَ kabi;

c) kishilik olmoshlari: أَنَا ، أَنْتَ ، أَنْتِ ، هُوَ ، هِيَ ، نَحْنُ ، أَنْتُمْ kabi;

d) qaratqich – qaralmish shaklidagi (izofa) birikmaning 1- bo'lagi: كِتَابُ الطَّالِبِ ، طَالِبُ الْجَامِعَةِ kabi;

Tanvin bilan tugagan so'zlar noaniq holatda deb hisoblanadi:

كِتَابٌ – (bir) kitob ، بِنْتُ – (bir) qiz ، مَدْرَسَةٌ – (bir) maktab

III BOB. JINS KATEGORIYASI

Arab tilida so'zlar ikki xil: 1) muannas (qiz) va 2) muzakkar (er) jinsida bo'ladi. So'zning muannas jinsda ekanligini bildiradigan yozilshidagi tashqi (morfologik) belgilari uchta:

1. So'zning "ta marbuta" bilan tugagan bo'lishi. Bunday so'zlar ko'p uchraydi:

hadya; ehson - هَدِيَّةٌ qiz - ابْنَةٌ amma - عَمَّةٌ

2. So'zning تاء (alif va hamza) bilan tugashi. Bunday so'zlar kam uchraydi:

davo - دَوَاءٌ sinov - بَلَاءٌ kasallik - دَاءٌ

3. So'zning ي (alif maqsura) bilan tugashi. Bunday so'zlar juda kam uchraydi:

xushxabar - بُشْرَى kasalxona - مُسْتَشْفَى

Qolgan muannas jinsdagi so'zlar ular anglatgan mazmuniga qarab aniqlanadi:

A) Ayol kishini yoki ularning ismini bildiruvchi so'zlar:

Qiz - بِنْتُ ona - أُمُّ Vidad (ism) - وِدَادٌ

B) Tananing juft a'zolarini bildiruvchi so'zlar:

quloq - أُذُنٌ qo'l - يَدٌ

C) Xalqlar, davlatlar, shaharlarning nomlari:

Livan - لُبْنَانُ

Liviya - لِيَبْيَا

D) Yaratilishiga ko'ra yakka bo'lgan narsalarning nomlari:

quyosh - شَمْسٌ olov - نَارٌ

Qolgan so'zlar muzakkar jinsga talluqli so'zlardir. Ba'zi so'zlar esa ikkala jinsga tegishlidir. Ularning ro'yxati lug'at kitoblarining oxirida beriladi.

Ushbu grammatik kategoriyalar bir necha jihatdan tasnif qilinadi:

1. Kategoriyadagi shakllarning ma'noviy tarkibiga ko'ra.
2. Morfologik kategoriya (MK) larning so'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligi jihatidan.
3. Morfologik kategoriya sintaktik qobiliyatlarining yo'nalishlariga ko'ra.

Endi shular ustida qisqacha to'xtab o'taylik. Birinchi tasnifga ko'ra kategoriyalar sodda va murakkab kategoriyalarga ajratiladi. Son, qiyoslash, kelishik, nisbat, subyektiv munosabat kategoriyalari sodda kategoriyalar jumlasidandir. Chunki ularda ma'no sodda bo'lib, faqat bir kategoriyaga mansub bo'lgan ma'noni ajratamiz. Chunonchi, son kategoriyasining ma'nosi miqdoriy va sifatiy belgilarning ma'lum yig'indisidan iborat bo'lsa, kelishik kategoriyasi tobelikni ifodalaydi. Qiyoslash kategoriyasi belgining qiyosan ekanligini ko'rsatsa, nisbat kategoriyasi fe'l anglatgan bajaruvchining tavsifini ifodalaydi.

Murakkab kategoriyalarning formalarida ma'no murakkab bo'lib, ularda bir necha kategoriyalarga mansub bo'lgan ma'nolarni ajratish mumkin. Murakkab kategoriyalar sirasiga egalik, o'zgalovchi, kesimlik kategoriyalarini kiritish mumkin. Masalan, egalik kategoriyasida uch xil ma'no mujassamlangan bo'ladi:

a) lisoniy va nolisoniy munosabatni ifodalash (egalik kategoriyasi uchun kategorial ma'no);

b) shaxs ma`nosi (nokategorial ma`no);

d) son ma`nosi (nokategorial ma`no).

Kesimlik kategoriyasi ham murakkab bo`lib, unda tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs -son ma`nolari birlashgan bo`lib, ular bitta qo`shimchada yoki bir necha qo`shimchada ro`yobga chiqadi. Masalan, " *Olmani ol*" gapida "ol" so`zshakli tasdiq, buyruq mayli, hozirgi zamon, ikkinchi shaxs, birlik son ma`nolarini voqelashtirib kelmoqda va bu ma`nolar [Ø] bilan ifodalanmoqda. " *Kitobni olmadingiz*" gapida inkor ma`nosi [-ma] qo`shimchasi bilan, mayl-zamon ma`nosi [-di] bilan, ko`plik ma`nosi [-iz] bilan ifodalanmoqda.

O`zgalovchi kategoriya ham murakkab bo`lib, unda ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllari ma`nolari bir butunlikni hosil qiladi.

Morfologik kategoriyalarning so`z turkumlari yoki gap bo`laklariga xosligi jihatidan tasnifiga ko`ra Morfologik kategoriyalar ikkiga bo`linadi: leksik-morfologik va funksional - morfologik. Leksik - morfologik kategoriyalar so`zlarning ayrim guruhlari- turkumlariga xos. Bular sirasiga son, subyektiv munosabat, qiyoslash, daraja, nisbat, o`zgalovchi kategoriyalar kiradi. Chunki son kategoriyasi, asosan, ot, olmoshlarga, qiyoslash, daraja kategoriyalari sifatlarga, nisbat, o`zgalovchi kategoriyalari fe'llarga xos leksik -morfologik kategoriyalar sifatida ajratiladi.

Funksional - grammatik kategoriyalarga kelishik, egalik, kesimlik kategoriyasi kiradi. Chunki kesimlik kategoriyasi gap markazi — kesimni shakllantirsa, kelishik uning boshqa bo`laklarini shakllantiradi. Egalik kategoriyasi esa so`z birikmasi qurilishini ta`minlash uchun xizmat qiladi.

XULOSA

Morfologik kategoriyalar sintaktik qobiliyatlarining yo'nalishlariga ko'ra tasnifida "birin - ketinlik", ya'ni grammatik kategoriyalarning sintaktik qobiliyatlarining "oldingisi bilan" va "keyingisi bilan" sifatida belgilanishi nazarda tutiladi. Masalan, "kitobning" so'zshaklidagi \-ning\ o'zidan keyin egalik shaklini olgan ot kelishi shartligini, "kitobi" so'zidagi \-i\ bu so'zshaklidan oldin qandaydir qaratqich aniqlovchi bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. O'zbek tilida egalik, nisbat, kesimlik, qiyoslash, son kategoriyalari so'zshaklning "oldingisi bilan" aloqalarini ko'rsatsa, kelishik kategoriyasi so'zshaklning "keyingisi bilan" aloqasini ko'rsatadi. Shaxsiy baho shakllari bu jihatdan mo'tadildir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-7 – sinflari va arab tilini o'rganishni endiboshlagan talabalar uchun mo'ljallangan kitoblar, ona tili darsliklarida ham yuqorida sharhlangan grammatik kategoriya va ularning tasnifi o'rin olgan. Talabalarga kategoriya ko'rinishlarini berishdan oldin to'plam va tasnif tushunchalarining mohiyati sodda va lo'nda qilib izohlab berilgan. Tasnif deganda biror predmetni, shaxsni, belgi, voqea, hodisani o'z ichki o'xshashliklari bilan bir to'plamga, guruhga kiritish yoki, aksincha, biror to'plamni uni tashkil etuvchi sinflarga, guruhlarga ajratish, farqlash tushuniladi.

Darhaqiqat, o'quvchi ona tilining morfologiya bo'limida so'z turkumlari va ularning lug'aviy shakllari, ma'noviy guruhlari, so'zshakllari va ularning turlarini o'rganar ekan, mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun tasnif asoslarini bilishi shart va zarurdir.

Darsliklarda so'z shakllari ikki guruhga ajratib o'rganiladi: aloqa-munosabat va lug'aviy shakllar. Aloqa-munosabat shakllari doirasiga egalik, kelishik, kesimlik kategoriyalari qo'shimchalari kiritilgan. Lug'aviy shakllar doirasida esa otlardagi son shakli, kichraytirish-erkalash shakli, sifatlardagi oddiy, qiyosiy, orttirma daraja lug'aviy shakllari, fe'llardagi nisbat va ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllari va harakat tarzi shakllari berilgan. Bunday shakllar o'zaklarga qo'shilib, ularning lug'aviy ma'nosiga qo'shimcha ma'no

beradi. Aloqa-munosabat shakllari soʻz birikmasi va gapni shakllantiradi. Lugʻaviy shakllar va aloqa - munosabat shakllarining maktab darsliklaridagi talqini ham oʻz xususiyatlariga ega. Lugʻaviy shakllar morfologiya boʻlimida har bir soʻz turkumini oʻrganish boshlanishida oʻtilib, bu lugʻaviy shaklning biz yuqorida UGM deb atagan maʼnosi sodda, bolalarga tushunarli shaklda bayon etiladi. Mavzu davomida har bir soʻz turkumining LMGlari oʻrganiladi va har bir LGM soʻzlarida lugʻaviy shaklning maʼno xususiyatlari ochib beriladi, yaʼni OGM va XGM lar berib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Зикриллаев Ғ. Ўзбек тили морфологияси. Бухоро, 1994 йил.
2. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. Грамматик категория муаммосига доир айрим мулоҳазалар. ЎТА, 1998 йил, 6-сон, 22-26-бетлар.
3. Ne'matov H. va b. Ona tili. 6 - sinf uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi" 2000.
4. Ne'matov H. va b. Ona tili. 7 - sinf uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi" 2000.
5. Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. 2-жузв. Андижон, 1994 йил.
6. Ne'matillo Ibrohimov , Muhammad Yusupov "Arab tili grammatikasi" Namangan 2009-yil 1-jild
2. Alibek Rustamov "Mahmud Zamaxshariy" Toshkent "Fan" nashriyoti 1971-yil
7. Zohidjon Islomov "Muqaddimat-ul-adab" Toshkent "Toshkent islom universiteti" nashriyoti 2002 yil
8. Abdulqayum Hikmat "Arab tili grammatikasidan saboqlar" Toshkent "Movarounnahr" 2002-yil
9. Mirqobil Hasanov, Muborak Abzalova Toshkent "Nihol" nashriyoti 2010-yil.
10. Boqi Zokirovich Xalidov "Arab tili darsligi" Toshkent O'zbekiston "Fan" nashriyoti 2007-yil
11. Eminjon Talabov "Arab tili darsligi" Toshkent O'zbekiston 1993-yil.